



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Suyima G‘aniyeva’s Scientific Views on Alisher Navoi’s Heritage

Tashkent State University of Oriental Studies Institute of Oriental Languages and Literature Faculty of Philology and Language Teaching: Arabic Language 1st-year student

Baxtiyorova Madina Jasur qizi

Abstract

This article discusses the scientific activity of Suyima G‘aniyeva in studying the heritage of Alisher Navoiy. The scholar’s contribution to the study of the textual, artistic, and spiritual features of Navoi’s works is analyzed. The article also highlights her role in the development of Navoi studies.

Keywords

Navoi studies, Suyima G‘aniyeva, Alisher Navoiy, textual studies, classical literature, spirituality, scientific research.

Suyima G‘aniyeva ilmiy qarashlarida Alisher Navoiy merosi

Toshkent DavlatSharqshunoslik universiteti Sharq tillari va adabiyoti instituti
Filologiya va tillarni o‘qitish: arabtili 1-kurs talabasi

BaxtiyorovaMadina Jasur qizi

Anotatsiya: Mazkur maqolada Suyima G‘aniyevaning Alisher Navoiy merosini tadqiq etishdagi ilmiy faoliyati yoritilgan. Olima tomonidan Navoiy asarlarining matniy, badiiy va ma’naviy xususiyatlarini o‘rganishdagi xizmatlari tahlil qilingan. Shuningdek, uning navoiyshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Navoiyshunoslik, Suyima G‘aniyeva, Alisher Navoiy, matnshunoslik, mumtoz adabiyot, ma’naviyat, ilmiy tadqiqot.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy boy adabiy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkor



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

hisoblanadi. Shoir asarlarida insonparvarlik, ma’rifat, axloqiy komillik va ezgulik g’oyalari yetakchi o‘rin egallaydi. Navoiy ijodini chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri Suyima G‘aniyevadir. U o‘z ilmiy faoliyati davomida Navoiy asarlarining poetik xususiyatlari, g‘oyaviy mazmuni hamda matnshunoslik jihatlarini keng tadqiq etgan. Olima Navoiy merosini xalq ma’naviyati va milliy tafakkurning yuksak namunasi sifatida baholaydi.

Suyima G‘aniyeva - o‘zbek adabiyotshunosligi va navoiyshunoslik ilmida muhim o‘rin egallagan yetuk olimlardan biridir. U butun ilmiy faoliyati davomida Alisher Navoiy ijodi, uning badiiy mahorati, ma’naviy-falsafiy qarashlari hamda mumtoz adabiyotdagi o‘rmini chuqur tadqiq etishga katta hissa qo‘shgan. Olima Navoiy asarlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning matniy xususiyatlarini o‘rganish va yosh avlodga yetkazishda samarali faoliyat olib borgan. Uning ilmiy izlanishlarida Alisher Navoiy ijodining g‘oyaviy-badiiy mohiyati, insonparvarlik va komil inson haqidagi qarashlari alohida e’tibor markazida turadi. Ayniqsa, uning Navoiy g‘azallari va dostonlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlari navoiyshunoslik rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Olima mumtoz adabiy merosni zamonaviy ilmiy qarashlar asosida talqin etib, Navoiy ijodining bugungi ma’naviy hayotdagi ahamiyatini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan.

Metodologiya

Mazkur maqolani yozishda tarixiy-qiyosiy, tahliliy hamda matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida Suyima G‘aniyevaning ilmiy ishlari, Navoiy asarlari va navoiyshunoslikka oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Shuningdek, olimaning Navoiy g‘azallari haqidagi qarashlari poetik va badiiy jihatdan tahlil qilindi. Avvalo, tarixiy-qiyosiy metod yordamida Suyima G‘aniyevaning ilmiy qarashlari o‘zbek navoiyshunosligi taraqqiyoti kontekstida o‘rganildi. Ushbu metod orqali olimaning tadqiqotlari boshqa navoiyshunos olimlarning qarashlari bilan qiyoslandi



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

hamda uning ilmiy yondashuviga xos jihatlar aniqlandi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy merosining turli davrlardagi talqinlari ham tahlil qilinib, Suyima G‘aniyeva tadqiqotlarining ilmiy ahamiyati belgilandi. Tadqiqot davomida matnshunoslik metodidan ham samarali foydalanildi. Bu metod asosida Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalari, ilmiy nashrlari va sharhlariga oid materiallar o‘rganildi. Ayniqsa, Suyima G‘aniyevaning matn ustida ishlash tamoyillari, eski turkiy so‘z va iboralarni izohlashdagi ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Matnshunoslik yondashuvi Navoiy asarlarining asl mazmunini anglash hamda badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi

Natijalar va muhokama

Suyima G‘aniyeva 1956–1959-yillarda O‘z FA Til va adabiyot institutida kichik ilmiy xodim, ilmiy kotib, katta ilmiy xodim lavozimlarida ishladi. Shu yillarda u “O‘zbek adabiyoti tarixi” (15 jildli), “Istoriya uzbekskoy literatury” (2 jildli), Navoiyning nasriy asarlari (13 asar) va nazmda yozilgan 3 asarining nashr etilishida faol ishtirok etdi. Uning Alisher Navoiy hazratlarining dastxatini Tehronning “Hoki Guliston” nomli muzey fondidan Vatanimizga keltirgani millatimiz, adabiyotimiz ravnaqi yo‘lida qilingan ezgu ishlardan, muhim yutuqlarimizdan biri bo‘ldi. Rossiya, Chexoslovakiya, Eron, Turkiya, Xitoy davlatlarida bo‘lgan xalqaro anjumanlarda qilgan ma‘ruzalari dunyo ilm ahli tomonidan katta qiziqish va e‘tibor bilan e‘tirof etilgan. S.G‘aniyeva adabiyotshunos, sharqshunos, tarjimon, manbashunos va matnshunos olim sifatida 20 dan ortiq kitob va risolalardan tashqari, turli to‘plam, jurnallarda 120 dan ortiq maqolalar hamda so‘zboshilar, vaqtli matbuotda 300 ga yaqin maqola va taqrizlar e‘lon qildi. Navoiyning nasriy asarlari, jumladan, “Majolis un-nafois”ni tadqiq etishga kirishgan olim izlanishlarini asosan qo‘lyozma manbalarga asoslanib olib bordi.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Olima «Majolis un-nafois»ning ilmiy-tanqidiy matnini chop ettirgach, «Navoiy dastxati» kitobini o‘quvchilar hukmiga havola etgan. Alisher Navoiy mukammal asarlar to‘plami (20 tomlik)da u «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya», «Hamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Nazm ul-javoxir», «Muhokamat ul-lug‘atayn» kabi asarlarni izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlangan. Bundan tashqari, Suyima G‘aniyeva Alisher Navoiyning uzoq yillar davomida ilm-fanga noma’lum bo‘lib kelgan “Munjojt” asarini topib, nashr ettirgan. Olima 2011-yilda Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlar to‘plamini nashrga tayyorlashda faol ishtirok etgan. Suyima G‘aniyeva Navoiy merosining tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatiga alohida urg‘u beradi. Uning ta’kidlashicha, Navoiy asarlarida insonparvarlik, ilm-ma’rifat, adolat va saxovat g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi. Bu g‘oyalar bugungi jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega. Olima Navoiy ijodining yosh avlod ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rnini yuqori baholaydi. Chunki shoir asarlarida insonni ezgulikka, ilm olishga va komillikka undovchi fikrlar mujassamdir. Shu jihatdan Navoiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. 1999-yilda Suyima G‘aniyeva "El-yurt xizmati" ordeni, 2008 yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi. 2015-yilda S.G‘aniyevaga "O‘zbekiston qahramoni" unvoni berildi.

Xulosa

Suyima G‘aniyevaning hazrat Alisher Navoiy merosini tadqiq etishga bag‘ishlangan asarlari dunyo mamlakatlarida nashr qilingan va ilmiy jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan. Buyuk shoirning jahon adabiyoti ma’naviyatining durdonalaridan bo‘lgan asarlari asrlar osha avlodlarga xizmat qiladi, demak, tadqiqotchi olimaning izlanishlari ham shu barobarida Navoiy mahzanidan bahra olmoqchi bo‘lgan muhlislarga kamarbasta bo‘laveradi. Olimaning hayoti va ijodi haqida adabiyotshunoslar,



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

shogirdlari tomonidan kitoblar, maqolalar yozilgan. Filologiya fanlari nomzodi, professor Suyima G‘aniyevaning ilmga, qadriyatlarga sadoqati, milliy adabiyotning nufuzi, mavqei yuksaltirish barobarida xalqimizning boy madaniyatini dunyoga tarannum etish borasidagi fidoyiligi avlodlarga ibrat bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Порсо Шамсиев, Суюма Ғаниева ва бошқалар. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. – Тошкент. Фан нашриёти. 1992.
2. Davlatova, s. . (2025). ilmiy fidoyilik timsoli: Suyima G‘aniyevaning navoiyshunoslikdagi hissasi. yosh olimlar, 3(17), 129-132
3. tsuos.uz
4. www.kh-davron.uz